

KONTEKSTUAL POLISEMANTIK BIRLIKLARNING KULGI HOSIL QILISHDAGI ROLI

Mavlonova Oyjamol Kozimjon qizi

Andijon davlat universiteti

Lingvistika mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Telefon: +998 91 482 42 21

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Habib Siddiq asarlarida kontekstual polisemantik birliklarning kulgi hosil qilishdagi roli tahlil etiladi. Adib qalamiga mansub yumoristik hikoyalar va satirik asarlar asosida so‘zlarning turli kontekstlarda turlicha ma’no kasb etishi orqali badiiy mazmun kuchaytirilgani yoritiladi. Ayniqsa, leksik birliklarning ko‘p ma’noliligi, nutqiy vaziyatga qarab yangi ma’no qatlamlari hosil qilishi va bu holatning hazil-mutoyiba yaratishdagi o‘rni tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *polisemantik birlik, kulgi, semantika, yumor, satira, ko‘p ma’nolilik.*

Ko‘p ma’nolilik, ya’ni polisemiya – til birliklarining birdan ortiq ma’noga ega bo‘lishi. Ko‘p ma’nolilik – murakkab hodisa hisoblanadi, deyarli har bir so‘zning lug‘aviy ma’no taraqqiyoti aniq, individual yondashishni, izohlashni talab qiladi. Polisemiya faqat matnda (kontekst) bilinadi. Tilimizdagi so‘zlarning aksariyat qismi ko‘p ma’nolidir, chunki kishilar o‘zlarining kundalik hayotida yangi paydo bo‘lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so‘zlar ishlataversalar, so‘zlarning soni ortib ketadi, ularni xotirada saqlash mumkin bo‘lmay qoladi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qoladi. Shuning uchun har qaysi tilda sanoqli til birliklarining turli xil kombinatsiyalaridan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifodalashga harakat qilinadi. Ushbu harakat sababli tilimizda oldindan mavjud so‘zlarga yangicha ma’nolar yuklanadi. Natijada polisemantik so‘zlar maydonga keladi. Polisemiya til boyligida o‘z o‘rniga ega, shuning uchun ko‘plab yozuvchilar asarlarida polisemantik so‘zlarga murojaat qilishadi, keng ko‘lamda ushbu birliklardan foydalanish orqali ma’noni kuchaytirishadi-ta’kidlashadi. Polisemantik birlikning alohida olingan semalari (ma’no) qanchalik rang-barang bo‘lmasin, ular har doim yagona ma’noviy asos tevaragida guruhlashadi. Ko‘p ma’noli so‘zlarning anglatayotgan ma’nosi matndagi boshqa so‘zlar orqali ochiqqlanadi. So‘zlarning polisemantikligi natijasida paydo bo‘ladigan ko‘chma ma’no va ulardagi nozik ottenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida keng qo‘llanadi. Shuningdek, Ko‘p ma’noli so‘zlar hajviyalarda “kulgi qo‘zg‘ash”da kuchli ahamiyatga ega. Misol tariqasida Habib Siddiqning “Shior” hangomasini oladigan bo‘lsak, “o‘rin” so‘zining ikki ma’noda kelishi

bozordagi suhbatdoshni chalg'itadi va tushunarsizlik holatini keltirib chiqaradi, natijada hajviyani o'qiyotgan o'quvchi beixtiyor kulgiga beriladi:

- Bilasizmi, kecha bozorga tushgandim. Juda asabim buzildi. Ko'zbo'yamachilik ham evi bilan-da.

- Ha, nima bo'пти?

Bozorda ikki odam o'zaro suhbatlashib qolishadi va biri bozorda osib qo'yilgan shiordan norozi ekanini bayon qiladi:

- "Bozorimizda chayqovchilarga, olibsotarlarga o'rin yo'q!" emish. Yo tavba!

Ikkinchisi hech ajablanmaydi va shiorning mutloq to'g'ri yozishganini aytadi, shunda haligi birinchi kishi qizishib ketadi:

- Qanaqasiga chayqovchilar birni o'nga pullab yotishibdi-yu, chayqovchi, olibsotarlar bemaza qovunning urug'iday ko'payib ketdi-ku, axir?!

Shunda ikkinchi suhbatdosh tushuntiradi: "Siz o'zi nima ish qilasiz? Tasavvur qiling, teatrdagi ishlar ekansiz, sizning ish joyingizga o'nta g'ijjakchi ishga kirmoqchi olasizmi?"

- Yo'g'-e. Bizda bitta G'ijjakchiga o'rin bor, hozirda u ham band. Boshqa g'ijjakchilar uchun o'rin yo'q!

Ana ko'rdingizmi, bozorda ham chayqovchilar-u olib sotarlar to'lib yotibdi. Boshqa chayqovchilarga, olibsotarlarga bo'sh ish o'rni yo'qda, shuning uchun ilib qo'yilgan bu shior!

Ushbu hajviyada polisemantik birlik hisoblangan "o'rin yo'q" gapi bir o'rinda "yo'qolsin", "qirilib ketsin" ma'nosida; bir o'rinda esa "bo'sh ish o'rni yo'q, ya'ni joy" ma'nosida kelmoqda.

Yoki yana bir "Daftar umumiy" nomli kichik hangomasida esa "umumiy" so'zi o'zining polisemantik ma'no qirralarini namoyon qiladi:

- O'-ho', har sohadan bir shingil bo'p ketibdi-yu – dedi o'qituvchi talabaning daftarini varaqlab.

- Betiga yozib qo'yilgan-kudomla – bu umumiy daftarda!

Ushbu hangomani o'qib beixtiyor kulgiga berilish tabiiy. Umumiy daftarga barcha fanlardan konspekt (yozma ish) yozib tashlagan talabasini koyimoqchi bo'lib turgan domlaga talaba hozirjavoblik bilan "umumiy" so'zining ko'p ma'noliligidan foydalangan holda "suvdan quruq chiqib ketadi", ya'ni umumiy daftarga barcha fanlar umumiy yozilaveradi degan ma'noda javob qaytaradi. Bu ma'nodan tashqari, yana talaba hozirjavobligi bilan "umumiy" daftarning butun sinfga tegishli ekanini ham anglatmoqchi bo'ladi.

Ko'p ma'noli birlik ishlatilgan va o'ziga xos kulgi hosil bo'lgan yana bir "Qani, oldik" sarlavhali hajviyadan bir shingil parcha keltirsam, ushbu hajviyada ham tog'a jiyan o'zaro

dialog (suhbat) qurishadi: Jiyan yashash qiyin bo‘lib ketayotgani, zamon og‘irlashgani va tirikchilik uchun pul topolmayotganidan shikoyat qiladi, tog‘asi esa shukr qilsang-chi, deya bir-ikki maslahatlar beradi va jiyanini noshukurligidan ancha ranjib suhbat orasida “Qani, oldik” gapini sakkiz marta ishlatadi. Dialogni o‘qish davomida bu ikki hamrohning, shubhasiz, alkogol mahsulotini iste‘mol qilib o‘tiribdi, deb o‘ylaymiz:

- Kun kechirish qiyin bo‘pketdi-da, veey. Bo‘lmasa, buni gapirib ham o‘tirmasdim.
- Qo‘y bu gaplarni, qani, oldik.
- Bir kilo sabzi yuz so‘m, bir dona tuxum bilasizmi? Hozir qancha?
- Bo‘ldi-da endi, xuddi tuxum yeb yurgan odamday gapirasana? Sen bilan biz uni bir so‘mga o‘n bittasini berishgandayam yemaganmiz. Gapni ko‘paytirma, oz qolyapti, qani, oldik.
- Uf-f. Qornim ochedi, oyoqlarim qaltirayapti.
- Ie, qo‘ysang-chi, gavdangni qara-yu. Jindaychida endi tugatib qo‘yamiz. Qani, oldik.
- Ichim yonib ketyapti. Kunning qizdirishini qarang, aka.
- Sabr qil. Birinchi martasida shunaqa bo‘ladi. Hech bunaqa ish qilmovdim, deding-ku.

Hali o‘rganib ketasan, dadilbo‘l, qani, oldik.

- To‘g‘ri aytasiz, o‘rganmaganman-da. Ko‘tarolmasmikinman, devdim.
- Ko‘tarasan, qani oldik!
- Mana bu boshqa gap, jiyan. Lekin baravar olaylik.
- Yo bittadan chekvolaylikmikan-a?
- Keyin biryo‘la xotirjam chekamiz. Tugatib qo‘ya qolaylik, qani oldik.

Boshidan oxirigacha takroran qo‘llangan “qani oldik” birikmasi spirtli mahsulot ichishayotgan ikki ulfatning suhbatiga o‘xshab tuyiladi, ammo hajviya oxirida do‘kon mudirining gapi berilgan va ushbu gap orqali “qani oldik” birligining ishga nisbatan ishlatilayotgani oydinlashadi:

- Hormanglar, endi, - yayrab kuldi do‘kon mudiri. – Lekin Do‘ltaqo‘zi, bugun topib kelgan yordamching ancha nimjonroq ekan-a?

So‘ngra hansirab turgan nozikkina talaba yigitga o‘girilib dedi:

- Iye, jiyan, qoq yelkalariningni, bir mashina unni tushirguncha hamma yog‘ingni oqartirib olibsan-a?

So‘nggi parchadan ma‘lum bo‘ladiki, “qani oldik” birikmasi ushbu o‘rinda ulfatchilik jarayonidagi “sog‘lik uchun ko‘tardik” birikmasi o‘rnida emas, balki “yukni ko‘tar, yukni ort” ma‘nosida kelmoqda va bir birikmaning polisemantikligi namoyon bo‘lmoqda. Hajviya so‘ngida ma‘lum bir ma‘no kontekstdan anglashiladi va bevosita kulgi uyg‘otadi.

Xulosa qilib aytganda, Habib Siddiq asarlarida kulgi hosil qilishning asosiy manbalaridan biri kontekstual polisemantik birliklardir. Bu birliklar asarlar mazmuniga

dinamika, o‘quvchida kutilmagan semantik kechishlar orqali estetik zavq uyg‘otadi. Polisemiyaga asoslangan kulgi, ayniqsa, xalqona ifodalar, kinoya va so‘z o‘yinlari orqali kuchaytiriladi. Adibning badiiy tilidagi nozik semantik o‘zgarishlar tahlili, polisemantik birliklarning faqat mazmun emas, balki kulgi vositasi sifatidagi imkoniyatlarini ham ko‘rsatadi. Bu jihatlar, o‘z navbatida, Habib Siddiq asarlarining lingvopoetik tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Habib Siddiq. Bedavo dardning davosi. – Toshkent, 2004.
2. Do’smatov H. Askiya matni lingvostilistikasi. – Toshkent: Fan. 2015.
3. Mirtojiyev M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2004.
4. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 2007.